

## Nyu York shtati diplomi talablari 9-12-sinflarda o'qiyotgan barcha talabalar uchun amal qiladi

### Kredit talablari

(Barcha diplom turlariga tatbiq etiladi: mahalliy, Vakillar yuqori statusli Vakillar)

	Kreditlarning minimal miqdori
Ingliz tili	4
Ijtimoiy fanlar <i>Quyidagicha taqsimlanadi:</i> AQSh tarixi va geografiyasi (1) Jahon tarixi va geografiyasi (2) Hukumatda ishtirok etish (½) Iqtisod (½)	4
Tabiiy fanlar <i>Quyidagicha taqsimlanadi</i> Hayot haqidagi fanlar (1) Fizika fanlari (1) Hayot va fizika haqida fanlari(1)	3
Matematika	3
Xorijiy tillar	1 <sup>(**)</sup>
Tasviriy san'at, musiqa, raqs va/yoki teatr	1
Jismoniy tarbiya <i>(har semestrda ishtirok etish)</i>	2
Salomatlik	½
Ixtiyoriy fanlar	3 ½
<b>Jami</b>	<b>22</b>

(\*\*) Nogiron talabalar, agar ularning IEPida (Individual ta'lif dasturi) ko'rsatilgan bo'lsa, xorijiy til bo'yicha 1 kredit birligi talabidan ozod qilinishi mumkin, ammo ular bitirish uchun hali ham 22 kredit birligi olishlari kerak.

#### 1.) Yo'llar

Talaba quyidagilarni bajarishi kerak:

- boshqa kurs bo'yicha (matematika, tabiiy fanlar yoki ijtimoiy fanlar) qo'shimcha Vakillari imtihonidan o'tish; yoki
- boshqa kurs bo'yicha (ingliz tili, matematika, tabiiy fanlar yoki ijtimoiy fanlar) Boshqarma tomonidan tasdiqlangan qo'shimcha alternativdan o'tish; yoki
- Boshqarma tomonidan tasdiqlangan yo'l baholashida o'tish (San'at, CDOS, xorijiy tillar); yoki
- Departament tomonidan tasdiqlangan CTE dasturini, shu jumladan tegishli 3 qismli texnik baholashni muvaffaqiyatli yakunlash; yoki
- CDOS bitiruv guvohnomasini olish uchun barcha talablarni muvaffaqiyatli yakunlash.

**Havola:** [Bir nechta yo'llar va Boshqarma tomonidan tasdiqlangan alternativ imtihonlar](#).

#### 2.) Apellyatsiya

Apellyatsiyalar mahalliy tuman tomonidan ma'qullanishi kerak. **Havola:** [Appellyatsiya, xavfsizlik tarmoqlari va rahbarni aniqlash](#).

#### 3.) Maxsus tasdiqnomalar

**Imtiyozli:** Talaba Vakillar diplomiga yoki yuqori statusli Vakillar diplomiga tatbiq etiladigan Vakillar imtihonlarida o'rtaча miqdorda kamida 90 ball oladi. Vakil imtihonlari uchun 2 tagacha Boshqarma tomonidan tasdiqlangan alternativlar almashtirilishi mumkin. Xorijiy tillar bo'yicha mahalliy ishlab chiqilgan B nazorat punkti imtihonlari hisobga kiritilmaydi.

**Matematika va/yoki tabiiy fanlar bo'yicha mahorat:** Talaba yuqori statusli Vakillar diplomi diplomi uchun belgilangan barcha talablariga javob beradi VA 3 ta matematika bo'yicha Vakillar imtihonlarida va/yoki 3 ta tabiiy fanlar bo'yicha Vakillar imtihonlarida 85 yoki undan yuqori ball oladi.

**Texnik tasdiqnomalar:** Talaba yo mahalliy diplom, Vakillar diplomi yoki yuqori statusli Vakillar diplomi uchun belgilangan talablariga javob beradi VA Boshqarma tomonidan tasdiqlangan CTE dasturini, shu jumladan 3 qismli texnik baholashni muvaffaqiyatli yakunlaydi.

**COVID-19 tufayli imtihondan ozod qilingan talabalarga maxsus tasdiqnomalar berishga doir qo'shimcha ma'lumot uchun havola:** [Tasdignomalar va muhrlar veb-sahifasi](#) yoki [NY shtati diplomi/guvohnoma talablari](#).

#### 4.) Xorijiy tillardan ozod qilish

Nogiron talabalar, agar ularning IEPida (Individual ta'lif dasturi) ko'rsatilgan bo'lsa, xorijiy tillar bo'yicha majburiy kredit birliklari talabidan ozod qilinishi mumkin, ammo ular bitirish uchun hali ham 22 kredit birligi olishlari kerak. Yuqori statusli Vakillar diplomiga ega bo'lishni istagan bunday talaba yuqori statusli diplom uchun belgilangan baholash talablariga javob berish uchun xorijiy tillaridagi ketma-ketlik o'rniiga San'at yoki CTE bo'yicha 5 talik ketma-ketlikni yakunlashi shart EMAS.

#### 5.) Mahalliy diplom uchun rahbar aniqlash

Turli xil xavfsizlik tarmoqlari qoidalari orqali mahalliy diplomga ega bo'lolmaydigan nogiron talabalar ma'lum shartlar ostida mahalliy diplom uchun rahbar aniqlash huquqiga ega bo'lislari mumkin. **Havola:** [Appellyatsiya, xavfsizlik tarmoqlari va rahbarni aniqlash](#).

#### 6.) COVID-19 ommaviy salomatlik bo'yicha favqulodda holatlar tufayli istisnolar

COVID-19 tufayli har qanday imtihondan ozod qilingan talabalar har qanday diplom turi bo'yicha baholash talablariga javob berish uchun bunday maxsus imtihondan o'tishlari shart emas. Quyidagi FAQga (ko'pincha so'raladigan savollar) qarang: [2020-yil iyun/avgust](#), [2021-yil yanvar](#), [2021-yil iyun/avgust](#) va [2022-yil yanvar](#) (faqat USHG).

#### 7.) Fuqarolik tayyorgarligi muhri

NY shtatidagi maktablarining bir qanchasi 2021-22 o'quv yilida Fuqarolik tayyorgarligi muhrini sinovdan o'tkazadi. **Havola:** [Fuqarolik tayyorgarligi tashabbusi](#).

### Baholash talablari

	Barcha talabalar uchun Vakillar diplomi		Barcha talabalar uchun appelliyatsiya orqali Vakillar diplomi		Barcha talabalar uchun appelliyatsiya orqali Mahalliy diplom		Nogiron talabalar uchun Mahalliy diplom		Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun appelliyatsiya orqali Mahalliy diplom	
VAKILLAR IMTIHONI yoki Boshqarma tomonidan tasdiqlangan alternativ bo'yicha o'tish bali	# imtihon	O'tish bali	# imtihon	O'tish bali	# imtihon	O'tish bali	# imtihon	O'tish bali	# imtihon	O'tish bali
Ingliz tili san'ati (ELA)	1	65	1	Tuman tomonidan appelliyatsiyaga qabul qilingan 1 ta 60-64 balli Vakillar imtihoni va boshqa barcha Vakillar imtihoni 65 yoki undan yuqori ball bo'lishi, YOKI, ikkalasi ham tuman tomonidan appelliyatsiyaga qabul qilingan 60-64 balli Vakillar imtihoni va 55-59 balli ELA Vakillar imtihoni va boshqa barcha Vakillar imtihoni 65 yoki undan yuqori ball bo'lishi †	1	Tuman tomonidan appelliyatsiyaga qabul qilingan 1 ta 60-64 balli Vakillar imtihoni va boshqa barcha Vakillar imtihoni 65 yoki undan yuqori ball bo'lishi	1	55*^	1	Tuman tomonidan appelliyatsiyaga qabul qilingan ELA Vakillar imtihoni va boshqa barcha Vakillar imtihoni 65 yoki undan yuqori ball bo'lishi, YOKI, ikkalasi ham tuman tomonidan appelliyatsiyaga qabul qilingan 60-64 balli Vakillar imtihoni va 55-59 balli ELA Vakillar imtihoni va boshqa barcha Vakillar imtihoni 65 yoki undan yuqori ball bo'lishi †
Matemetika	1	65	1		1		1	55*^	1	
Tabiiy fanlar	1	65	1		1		1	55*^	1	
Ijtimoiy fanlar	1	65	1		1		1	55*^	1	
Yo'l (orqa tarafdag'i 1-eslatmaga qarang)	1 yoki CDOS	65 Agar Vakillar imtihoni bo'lsa	1 yoki CDOS	1 yoki CDOS	1 yoki CDOS	55*^ Agar Vakillar imtihoni bo'lsa	1 yoki CDOS	55*^ Agar Vakillar imtihoni bo'lsa	1 yoki CDOS	55*^ Agar Vakillar imtihoni bo'lsa
Kompensatsion xavfsizlik tarmog'i	Qo'llab bo'lmaydi		Qo'llab bo'lmaydi				Har qanday majburiy Vakillar imtihonida (ELA va matematikadan tashqari) 45-54 ball boshqa majburiy Vakillar imtihonida, shu jumladan ELA va matematika imtihonidan 65 yoki undan yuqori ball olish bilan qoplanishi mumkin.		Qo'llab bo'lmaydi	

### Yuqori statusli Vakillar diplomi

Yuqori statusli Vakillar diplomi olmoqchi bo'lgan talabalar quyidagilarni bajarishi kerak:

- Vakillar diplomi uchun belgilangankredit va baholash talablariga javob berish; va
- Ikki qo'shimcha** Vakillar imtihonlarini yoki **matematikadan** Boshqarma tomonidan tasdiqlangan alternativlarni topshirish; va
- Bitta qo'shimcha** Vakillar imtihoni yoki **tabiiy fanlardan** Boshqarma tomonidan tasdiqlangan alternativlarni topshirish; va
  - yuqori statusli diplomga ega bo'lishni istagan talabalar kamida bitta Vakillar imtihonini yoki ikkala tabiiy fan fan bo'yicha Boshqarma tomonidan tasdiqlangan alternativlarni topshirishi kerak (**bitta hayot va bitta fizika fanlari**); va
- Ketma-ketlikni yakunlash:
  - Xorijiy tillar bo'yicha qo'shimcha 2 kredit birligi olish va Xorijiy tillar bo'yicha mahalliy ishlab chiqilgan B nazorat punkti imtihonini topshirish, yoki
  - San'at bo'yicha 5 birlik ketma-ketligini yakunlash, yoki
  - CTE bo'yicha 5 birlik ketma-ketligini yakunlash.

### Yuqori status uchun baholash kombinatsiyalari

An'anaviy kombinatsiyalar	ELA, Jahon tarixi va geografiysi, AQSH tarixi va hukumati, 3 ta matematika, 2 ta tabiiy fanlar (1 hayot haqidagi fan. 1 fizika fani) = 8 ta baholash
Yo'l kombinatsiyasi (STEMdan boshqa)	ELA, 1 ta ijtimoiy fan, 3 ta matematika, 2 ta tabiiy fan (1 hayot haqidagi fan. 1 fizika fani), 1 yo'l (tabiiy fanlar va matematikadan boshqa) = 7 ta (+Yo'l) yoki 8 ta baholash.
STEM (Matematika) Yo'l kombinatsiyasi	ELA, 1 ta ijtimoiy fan, 4 ta matematika ‡, 2 ta tabiiy fan (1 hayot haqidagi fan, 1 ta fizika fani) = 8 ta baholash.
STEM (Tabiiy fanlar) Yo'l kombinatsiyasi	ELA, 1 ta ijtimoiy fan, 3 ta matematika, 3 ta tabiiy fan (kamida 1 hayot haqidagi fan, kamida 1 ta fizika fani) = 8 ta baholash.

\* Nogiron talaba har qanday fan bo'yicha ikkita Vakillar imtihonida 52 dan 54 gacha ball to'plaganligi uchun appelliyatsiya berishi va mahalliy diplom bilan bitirishi mumkin. Havola: [Nyu York Shtati diplomi/guvohnoma talablari](#): Nogiron talabalar uchun Mahalliy diplom.

^ Agar nogiron talaba bironta Vakillar imtihonida o'tish ballini to'play olmasa, talaba mahalliy diplom uchun rahbar aniqlash huquqiga ega bo'lishi mumkin. Havola: [Appellyatsiya, xavfsizlik tarmoglari va rahbarni aniqlash](#).

† ELA Vakillar imtihonida 55-59 ball olgani uchun appelliyatsiya talab qilayotgan ingliz tilini o'rganuvchilar, agar ular Qo'shma Shtatlarga 9-sinf yoki undan keyin kirgan bo'salar va ikkinchi marta test topshirganlarida ingliz tilini o'rganuvchi sifatida tasniflangan bo'lsalarga haqli hisoblanadilar. Havola: [Nyu York Shtati diplomi/guvohnoma talablari](#): Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun Mahalliy diplom

‡4-matematika imtihoni Boshqarma tomonidan tasdiqlangan alternativ imtihonlar ro'yxatidan tanlash mumkin.